



Xorijiy tilni o'rganishda multimedyaning roli

Telmanova Dilrabo Dilshodovna

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti 2-kurs talabasi.

Raqam: +998 88 395-07-78

Annotatsiya. Hozirgi kunda texnologiyalardan samarali foydalanish, ular orqali multimediali dasturlarni o'quv jarayonida qo'llash- yangi axborotni tez va oson qabul qilishning zamonaviy usuli bo'lmoqda. Xorij tilini o'rganishda multimedia dasturlaridan foydalanish o'quvchi uchun nafaqat tilni, balki, o'sha til va davlatga mansub bo'lgan millatning madaniyatini chuqur o'rganishga da'vat etadi. Bu maqolada siz yangi til o'rganishda va dars jarayonlarda multimedidan foydalanishning afzalliklari va ahamiyatlari bilan tanishib chiqasiz.

Kalit so'zlar: multimedia, multimedyaning turlari, multimedyaning afzalliklari, o'rganishning turlari, auditory, visual, reading/writing, kinesthetic.

Abstract. Today, the effective use of technologies, the use of multimedia programs through in the educational process, is a modern way of receiving new information quickly and easily. The use of multimedia programs in learning a foreign language encourages the student to learn not only language, but also the culture of the nation belonging to that language and country. In this article, you will know about the benefits and importance of using multimedia in learning a new language and in the teaching process.

Key words: multimedia, types of multimedia, advantages of multimedia, types of learners (auditory, visual, reading/writing, kinesthetic).

Xorijiy tilni o'rganishda bir nechta usullardan foydalaniladi. Bu usullardan biri- **multimedia** orqali o'rganishdir. Multimedia yangi tilni o'rganishda muhim rol o'ynashining asosiy sabablari- til o'rganayotgan o'quvchiga turli imtiyozlarni yaratishi va o'rganish tajribasini oshirishidir.



Multimedia- zamonaviy va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida visual va audio effektlarning o'zaro ta'siri hisoblanadi. Multimedia matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Multimediane tasvirlarni, videolarni va interaktiv grafiklar kabi visual elementlarni o'z ichiga olishi o'quvchilarga tilning yangi lug'at, grammatika qoidalari va madaniy jihatlarini tushunish va eslab qolishga yordam beradi. Shu bilan birga, xorijiy tilga mansub bo'lgan, oson tilda yozilgan, qiziqarli multfilmlar ham tilni osongina va oddiy so'zlar bilan o'rganishga yordam beradi. Har bir yangi tilni o'rganayotganda o'quvchi birinchilardan bo'lib duch keladigan muammo so'zlarning talaffuzi, ya'ni intonatsiya. Multimedia ko'pincha yozib olingan dialoglar, talaffuz qo'llanmalari va tinglash mashqlari kabi audio komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu eshitish elementlari o'quvchilarga tinglash qobiliyatini yaxshilash, to'g'ri talaffuzni rivojlantirish va tilning tabiiy oqimi va intonatsiyasi bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bu audio komponentlar o'sha tilga mansub bo'lgan mahalliy so'zlovchilar tomonidan ovoz berilgan bo'ladi va aynan shuning uchun o'quvchilar eshitish orqali so'zlarning talaffuzini oson va tez o'rganadilar. Bundan tashqari o'quvchilar multimedia orqali filmlar, qo'shiqlar, yangiliklar va real hayotdagi suhbatlar kabi haqiqiy materiallardan foydalanishlari mumkin.

Haqiqiy dunyo tillaridan foydalanish o'quvchilarga so'zlashuv iboralarini, idiomalarini tushunishga yordam beradi va ularning umumiy til bilimlarini yaxshilaydi. Haqiqiy materiallardan foydalanish o'quvchilarni o'rganayotgan tili va shu til bilan bog'liq bo'lgan madaniyatni ochib beradi. Ushbu ta'sir o'quvchilarga til ortidagi madaniy kontekstni chuqurroq tushunishga yordam beradi, madaniy sezgirlikni oshiradi va turli madaniy muhitda samarali muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

Hozirgi paytda til o'tgatadigan kurslar juda ko'p va shu bilan birga onlayn dars o'tadiganlar ham mavjud.



Bu onlayn darslarning barchasi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Bu ham multimedyaning bir turi hisoblanadi. Bu turdagi multimedialardan istalgan paytda va istalgan joyda foydalanish imkoniyati mavjud. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan o'rganish tezligini tanlashlari, kerak bo'lganda darslarni takrorlashlari va o'zlariga qulay bo'lgan material bilan shug'ullanishlari mumkin, ya'ni onlayn darslarda mavjud bo'lgan materiallar va video ilovalardan o'quvchi dars davomida va dars tugagandan keyin ham foydalana oladi. Bundan tashqari, multimedia o'quv vositalaridan foydalanish, tabiiy til muhiti mavjud bo'lmaganda, chet tillarida real nutqiy muloqotga imkon qadar yaqin bo'lgan sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

O'quvchilarning dars jarayonida o'rganishining 4 xil turi mavjud. Bular (ingliz tilida): **visual, auditory, reading/writing** va **kinesthetic**. **Visual** (ingliz tilida, sifat-ko'rishga oid) - bu o'rganish turi orqali o'rganadigan o'quvchilar, asosan, har xil diagrammalar, rasmlar xaritalar va shunga o'xshash o'quv qurollari yordamida mavzuni yaxshiroq eslarida saqlaydilar. **Auditory** (ingliz tilida) - eshitish degan ma'noni anglatadi. Bu o'rganish turiga kiruvchi o'quvchilar dars jarayonida eshitgan ma'lumotlarini yaxshiroq eslab qolish ehtimoli ko'proq. O'rganishning yana bir turi - **reading** (ingliz tilida o'qish) / **writing** (ingliz tilida yozish) hisoblanadi. Va oxirgi o'rganish jarayoni **kinesthetic**. **Kinesthetic** (ingliz tilida - bajarib o'rganish) - amaliy o'rganuvchi o'quvchilarga nisbatan aytiladi. Multimedia visual va auditory o'rganuvchilariga katta yordam beradi. O'quvchilar o'zlarining mobil qurilmalari yordamida eshitib yoki tomosha qilib o'rganishlari mumkin. Bu barcha o'rganishning turlarini hozirgi zamonda dars vaqtida amalga oshirish mumkin. Bilganingizdek, XXI asr - texnologiya asri hisoblanadi va shu kungacha qariyb barcha maktablar kompyuter va televizorlar bilan ta'minlangan. Dars paytida multimedidan foydalanish, o'quvchilarni mavzuga qiziqtirishni va dars davomida faollikni ta'minlaydi.



Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan ma'lumot kishi xotirasiga uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirok etishi kamayib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tatbiq etiladi, ta'lim jarayonida badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rt dan bir qismini, ko'rgan materialining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi. Ham ko'rib, ham eshitgan axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalarida foydalanganda esa yaxshi samara beradi.

Zamonaviy ta'lim vositalari- interaktiv, audio-vizual, multimediali o'quv jihozlari- shunchaki zamonga mos rusumga aylanib borayotgan vositalar emas, balki o'quvchilar shaxsini rivojlantirish uchun variativ imkoniyatdir. Zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi esa shunchaki bilim berishdagina emas, balki o'quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini loyihalashtirishga yordam berishdan iborat. Har qanday nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanishi zarur. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish, qiziqtirish juda muhim.

O'qitishni qiziqarlilashishi hamda unda barcha talabalarning fiku-zikri bilan faollashishi asosida ta'lim jarayoni juda samarali o'tadi. Bunda ko'rgazmali vositalar ham muhim o'rin tutadi, ular axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonining universal ta'siri, unung asosida esa - foydali malaka va ko'nikmalar, nihoyat keng doiradagi salohiyatlari shakllanadi.

Multimedia texnologiyalariga qiziqish mashhur amerikalik kompyuter mutaxassisi biznesmen Bill Geyts nomi bilan bog'liq. U 80-yillar oxirida "National Art Gallery. London" nomli dasturiy mahsulotni yaratgan. Dastlab bu multimedia dasturida muzeyning ma'lumot omborlaridan foydalanilgan.



Bunda turli muhitlardan- tasvir, tovush, animatsiya, gipermatn tizimi namoyon qilingan. Aynan mana shu multimedia dasturi quyidagi multimedining uchta asosiy tamoyillarni o'z ichiga qamrab olgan:

1. Axborotni odam qabul qila oladigan bir nechta muhit yordamida tasvirlash;
2. Foydalanuvchi tomonidan “mustaqil qidiruv” asosida dastur chegaralaridan chiqib ketmagan holda, o'zining mustaqil usullarini qo'llash;
3. Navigatsiya vositalari va interfeys dizaynidan foydalanish.

Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati – interfaollik hisoblanadi. **Inyerfaollik**- axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligidir. Bu texnologiyalarning asosiy maqsadi- tovush, video, animatsiya vizual effektlar bilan ta'minlangan dasturiy mahsulotlarni yaratishdan iboratdir. Bunda multimedia dasturiy mahsulotlari o'z ichiga interfaol interfeys va boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi. Undan tashqari multimedia texnologiyasidan foydalanuvchi o'zi dizayn bilan shug'ullana olishiga imkon beradi, shuningdek, statik(harakatsiz) va dinamik(harakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o'z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tarqatishi mumkin.

Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkoniyatini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, texnologiya asrida multimedia dasturlari chet tilini o'rganishda asosiy vositaga aylanmoqda. Multimedia dasturlaridan foydalangan holda o'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun qiziqarli va samarali darsni ta'minlay oladilar.



Qiziqarli dars tashkil etish esa hozirgi kunda o'quvchilar uchun odatga aylangan dars jarayonidan qochish, dars paytida mobil qurilmalardan foydalanish va shu kabi muammolarga yechim bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-multimedia-vositalarini-qo-llash>
2. <https://www.teachingchannel.com/k12-hub/blog/4-types-of-learners-in-education/#:~:text=The%204%20types%20of%20learners,that%20fits%20thei,r%20individual%20needs>
3. <https://goaravetisyan.ru/uz/rol-multimediinyh-tehnologii-v-processe-obucheniya-multimedia-tehnologii-v/>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-multimedia-technologies-in-teaching-foreign-languages-1>